



ANDIJON VILOYATIDA
XIZMATLAR SOHASINING
ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-dekabr

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'rin tutib, aholi bandligini oshirish, turmush sifatini yaxshilash va resurslardan samarali foydalanishga hissa qo'shadi. Globalashuv va texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan xizmatlar innovatsiyalar, samaradorlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlik uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xizmatlar sohasi ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlashga, davlat, biznes va aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'sishini rag'batlantiradi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-dekabr)

71,4



**Xizmatlar sohasidagi
korxona va
tashkilotlar
ulushi, % da**

12 197,0



**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi, ming
so'mda**

75,6




**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi, % da**



Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(1- yanvar holatiga ko'ra)

2025- y.

71,4

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da



2021- y.

62,3

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(yanvar-dekabr)

67,9

2024- y.




Jami yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da





2020- y.

28,5


Soni, birlikda.




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari



Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari




Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-dekabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ Grafikda va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan, 2023-yil hajmi va 2024- yil yanvar-dekabr oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda shakllantirilgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-dekabr)


Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Viloyat bo'yicha jami	41 807,5	100,0	113,1
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	10 047,0	24,0	115,9
Xonobod sh.	633,7	1,5	115,6
Oltinko'l	1 130,9	2,7	115,1
Andijon	1 621,5	3,9	113,8
Baliqchi	1 499,1	3,6	114,6
Bo'ston	403,2	1,0	113,7
Buloqbo'shi	822,6	2,0	114,5
Jalaquduq	1 110,6	2,7	115,7
Izboskan	1 266,1	3,0	114,1
Ulug'nor	360,3	0,9	113,5
Qo'rg'on-tepa	1 309,8	3,1	114,0
Asaka	1 889,3	4,5	113,5
Marhamat	1 061,8	2,5	114,2
Shahrixon	1 401,8	3,4	113,9
Paxtaobod	1 035,1	2,5	114,4
Xo'jaobod	1 374,4	3,3	115,0

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-dekabr)




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-dekabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **75,6** foizni, shu jumladan, **41,7** foizini kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-dekabr)





Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-dekabr)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	41 807,5	100,0	113,1
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 396,3	3,3	118,0
Moliyaviy xizmatlar	5 717,3	13,7	119,1
Transport xizmatlari	6 240,4	14,9	115,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	5 973,4	14,3	116,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	12 438,5	29,8	110,3
Savdo xizmatlari	8 808,3	21,1	112,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	710,1	1,7	107,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 461,9	3,5	108,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	681,9	1,6	113,6
Ijara xizmatlari	577,7	1,4	104,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	832,0	2,0	111,0
Shaxsiy xizmatlar	1 440,5	3,4	112,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	247,8	0,6	102,1
Boshqa xizmatlar	1 254,6	3,0	117,3



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr) ¹⁾

■ Hajmi, mlrd so'mda
● O'sishi, % da



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida xizmatlarning umumiy hajmida (yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda) yashash va ovqatlanish xizmatlarining ulushi **29,8** foizni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **99,0** %.

Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

○ O'sishi, % da

Savdo xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr) ¹⁾

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdoning ulushi (yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda) umumiy savdo xizmatlarining yarmidan ziyod qismini, ya'ni **74,5 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)



Andijon viloyati	8 808,3	+12,2
Andijon shahri	3 178,8	+12,3
Asaka	553,1	+12,1
Andijon	464,7	+12,4
Oltinko'l	441,5	+11,4
Qo'rg'ontepa	427,1	+12,5
Baliqchi	365,5	+11,9
Shahrixon	342,5	+11,6
Jalaquduq	336,6	+11,3
Xo'jaobod	316,8	+13,1
Izboskan	277,9	+11,8
Marhamat	276,1	+12,0
Paxtaobod	244,1	+11,1
Buloqboshi	224,2	+13,1
Xonobod shahri	158,4	+12,3
Bo'ston	130,3	+11,0
Ulug'nor	69,3	+9,4


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi, % da

Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr) ¹⁾

■ Hajmi, mlrd so'mda
● O'sishi, % da



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **95,7** foiz.

Andijon shahrida transport xizmatlari hajmi **2 321,4** mlrd so'mni tashkil etib, mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **117,9** foizni tashkil etgan.

Hududlar kesimida transport xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)

Andijon viloyati	6 240,4	+	+15,6
Andijon shahri	2 321,4	+	+17,9
Baliqchi	467,0	+	+15,7
Asaka	305,0	+	+15,2
Xo'jaobod	289,4	+	+16,0
Izboskan	237,8	+	+15,6
Paxtaobod	236,9	+	+15,8
Shahrixon	224,5	+	+15,3
Marhamat	212,5	+	+15,9
Andijon	212,0	+	+16,1
Xonobod shahri	211,6	+	+16,5
Qo'rg'ontepa	204,3	+	+16,4
Jalaquduq	199,6	+	+15,5
Oltinko'l	184,4	+	+16,8
Buloqboshi	174,5	+	+16,2
Bo'ston	65,5	+	+15,4
Ulug'nor	65,0	+	+15,0

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda


○ O'sishi, % da




Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)

Hajmi, mlrd so'mda
O'sish sur'ari, % da



Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr, mlrd so'mda)





Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr) ¹⁾



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni kompyuter dasturlashtirish xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-dekabr** oylaridagi ulushi **83,5 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)

Andijon viloyati	1 396,3	+18,0
Andijon shahri	542,7	+24,9
Asaka	87,6	+15,0
Shahrixon	65,6	+14,8
Baliqchi	61,8	+15,3
Marhamat	60,4	+15,4
Oltink'ol	59,8	+17,1
Jalaquduq	59,9	+15,7
Andijon	55,5	+14,7
Qo'rg'ontepa	53,8	+15,1
Xo'jaobod	50,2	+12,9
Paxtaobod	46,3	+15,6
Buloqboshi	41,6	+16,0
Izboskan	36,4	+15,5
Bo'ston	22,1	+14,9
Xonobod shahri	18,6	+17,7
Ulug'nor	10,9	+16,2


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

◆ O'sishi, % da

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-dekabr)




2024-yil yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **1 461,9** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **108,7 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar


(2024- yil yanvar-dekabr, mlrd so'mda)



Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Andijon shahriga to'g'ri keladi. **2024-yilning yanvar-dekabr** oylari davomida mazkur hududda ushbu turdagi xizmatlar hajmi **466,5** mlrd so'mni yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **31,9** foizini tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)

2024- yil yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **681,9** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,6** % ini tashkil etdi.



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr)

Andijon viloyati	681,9	+13,6
Andijon shahri	147,3	+20,1
Asaka	48,5	+15,1
Qo'rg'ontepa	32,1	+14,1
Shahrixon	28,9	+14,4
Jalaquduq	27,0	+16,6
Marhamat	26,5	+15,3
Izboskan	25,2	+14,6
Andijon	21,2	+17,5
Xo'jaobod	19,2	+16,0
Baliqchi	18,9	+15,4
Xonobod shahri	15,6	+17,9
Paxtaobod	17,1	+14,8
Buloqboshi	12,7	+15,7
Oltink'ol	11,9	+15,8
Ulug'nor	7,9	+16,2
Bo'ston	7,2	+15,5

■ Hajmi, mlrd so'mda ♦ O'sish sur'ati, % da



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi


(yanvar-dekabr) ¹⁾



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **99,2** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ *включая нераспределенные объемы по регионам*


■ Hajmi, mlrd so'mda

🏠 O'sishi, % da

Ijara xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr) ¹⁾



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr, mlrd so'mda)



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ijara xizmatlari hajmi **577,7** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **81,6** foizni tashkil etadi.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda




Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi


(yanvar-dekabr) ¹⁾

■ Hajmi, mlrd so'mda
● O'sishi (kamayishi), % da



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **16,0** foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ♦ O'sishi, % da




Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr, mlrd so'mda)



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **247,8** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **29,3** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (shartnoma) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.